O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI KO‘KDALA TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

181214, Ko‘kdala tumani, Umar Xayyom ko‘chasi, 77-uy Faks: (+99875) 230-14-59, t.kukdala@exat.uz

2024 - yil 2 - yanvar 1-4-224-Q/24 Ko‘kdala tuman hokimligi

Tumanda 2024-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O’zbekistan Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari qo‘yidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam

tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari
va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1-mart- 30-iyunda;

ikkinchi marta – 1-sentabr- 31-oktyabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvar – 31-dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va

ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub’ektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O’zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2023-yil 27-yanvardagi 15-4-224-Q/23-son “Tumanda 2023-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori 2023-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari O’.Abduraximov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **X.Djurayev**

Ko‘kdala tuman hokimining
2024-yil 2-yanvardagi
1-4-224-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Ko’kdala tumani hududida 2024-yil transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish komissiyasi

T A R K I B I

K. Normuminov	tuman IIB JXX yo‘l harakati xavfsizligi bo’linmasi, avtomototransport vositalarining texnik holati va ulardan foydalanishni nazorat etish bo’limi boshlig’i, **komissiya raisi**

Komissiya a’zolari

J.Qurbonov	tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i
Lavozimga ko’ra	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi texnik xodimi
A.Norqulov	Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasining biriktirilgan xodimi

Ko‘kdala tuman hokimining
2024-yil 2-yanvardagi
1-4-224-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Ko’kdala tumanida mavjud bo‘lgan tashkilot, korxona va avtoxo‘jaliklarga tegishli transport vositalarining 2024 yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Avtoxo‘jalik va tashkilotlar nomi	Ko‘rikdan o‘tadigan kun	Vaqti	Ko‘rik o‘tadigan joyi	Transport vositasi soni
1	O‘zmaloyl MCHJ	03.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	3
2	Vafoyev Nasriddin FX	04.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	2
3	Chiroqchi Vetdori XK	04.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1
4	Berdiqulov Ramziddin MCHJ	05.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1
5	Obod ostona invest XK	06.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1
6	Odil quruvchi MCHJ	09.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1
7	Chiroqchi tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi	10.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1
8	Barqaror chorva MCHJ	11.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1
9	Shavkat korxonasi	12.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	3
10	Fayz ICHSF	13.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1
11	Muborak avtotextrans MCHJ	16.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	2
12	Abdilvosit Chulliyev XK	17.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1
13	Iktisod XICHSF	18.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	5
14	Kamol FX	19.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	2

15	Usta Xushvakt Karvoni firmasi	20.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	2
16	Karimov Azamat XF	23.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1
17	Chiyal texnika tayanchi MCHJ	24.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	2
18	Mirza karon FX	24.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1
19	Mustaxam tayanch firmasi	25.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1
20	Jurabobo XF	26.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	2
21	Alp olim XF	27.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1
22	Ko‘ktosh barakasi firmasi	30.03.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1
23	Nurmuxammad ota FX	31.03.2024	08-00	O‘zini Avtosaroy	4
24	Yuk avtoservis MCHJ	03.04.2024	09-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	23
25	Trans MCHJ	08.04.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	19
26	Akbarxo‘ja MCHJ	09.04.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	8
27	Avtoxavaskor o‘kuv tashkiloti	10.04.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	8
28	14-sonli Maxsus internat maktabi	13.04.2024	8-00 13-00	O‘zini Avtosaroy	2
29	Temir Beton MCHJ	14.04.2024	9-00 16-00	O‘zini Avtosaroy	3
30	Saxrotrans servis MCHJ	15.04.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	8
31	Eski Anxor irrigatsiya tizimi	16.04.2024	8-00 15-00	O‘zini Avtosaroy	8
32	Chiroqchi tuman Sanitariya epidimiologik osyishtalik va jamoat salomatligi markazi	17.04.2024	8-00 16-00	O‘zini Avtosaroy	3
33	Chirqochi tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi	22.04.2024	9-00 15-00	O‘zini Avtosaroy	16
34	Vatanparvar tashkiloti	23-24.04.2024	8-00 16-00	O‘zini Avtosaroy	13

35	Chiroqchi tuman davlat solik inspeksiyasi	27.04.2024	9-00 15-00	O‘zini Avtosaroy	1
36	4-sonli kasb-hunar maktabi	28.04.2024	8-00 13-00	O‘zini Avtosaroy	18
37	2-sonli kasb-hunar maktabi	29.04.2024	9-00 16-00	O‘zini Avtosaroy	3
38	Chiroqchi tuman xokimligi	30.04.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	3
39	Kishlok kimiya tuman filiali	01.05.2024	9-00	O‘zini Avtosaroy	4
40	Chiroqchi tuman MTP AJ	04.05.2024	8-00 15-00	O‘zini Avtosaroy	4
41	Chiroqchi tuman Moliya bo‘limi	06.05.2024	9-00	O‘zini Avtosaroy	1
42	ATB Xalk banki tuman filiali	07.05.2024	8-00 16-00	O‘zini Avtosaroy	7
43	Istiklol Parandachilik OXJ	08-11.05.2024	9-00 15-00	O‘zini Avtosaroy	7
44	Ko‘kdala MTP DAJ	12.05.2024	8-00 16-00	O‘zini Avtosaroy	2
45	Kolonna sho‘ba korxonasi	13.05.2024	8-00 13-00	O‘zini Avtosaroy	8
46	Binokor xususiy korxonasi	14-15.05.2024	9-00 16-00	O‘zini Avtosaroy	25
47	Karvon xususiy korxonasi	18.05.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	4
48	Olim ug‘li Jasur xususiy korxonasi	19.05.2024	9-00	O‘zini Avtosaroy	2
49	Paxtasanoat trans	21.05.2024	8-00 15-00	O‘zini Avtosaroy	4
50	Chiroqchi tuman Xalk ta’limi bo‘limi	22.05.2024	9-00	O‘zini Avtosaroy	1
51	Farxod temir beton xususiy korxonasi	22.05.2024	8-00 16-00	O‘zini Avtosaroy	6
52	Chiroqchi tuman Elektr ta’minoti korxonasi	25.05.2024	8-00 16-00	O‘zini Avtosaroy	5
53	Chiroqchi tuman Obodonlashtirish boshkarmasi	26.05.2024	9-00 15-00	O‘zini Avtosaroy	5
54	Toza xudud DUK Chiroqchi tuman filiali	27.05.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	11

55	Kishlok kurilish bank Ko‘kdala filiali	28.05.2024	8-00 13-00	O‘zini Avtosaroy	1
56	Ezgu usul MCHJ	29.05.2024	9-00 16-00	O‘zini Avtosaroy	2
57	Ravshanov Sharofiddin Murodovich FX	01.06.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	2
58	Samo invist yog‘dusi ICHSF	02.06.2024	9-00	O‘zini Avtosaroy	2
59	Kvars ishlab chikarish korxonasi	03.06.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	6
60	Yomgo brek MCHJ	04.06.2024	9-00	O‘zini Avtosaroy	2
61	Madat xususiy dorixona	05.06.2024	8-00 16-00	O‘zini Avtosaroy	1
62	Ma’shal FX	06.06.2024	9-00 15-00	O‘zini Avtosaroy	1
63	Jaxongir Toshkentboyevich firmasi	08.06.2024	8-00 16-00	O‘zini Avtosaroy	1
64	Abdiraxmon bobo xususiy asalli XK	09.06.2024	9-00 15-00	O‘zini Avtosaroy	1
65	Asl turon quruvchi XK	10.06.2024	8-00 13-00	O‘zini Avtosaroy	1
66	Qilich xususiy korxonasi	11.06.2024	9-00 16-00	O‘zini Avtosaroy	1
67	Shakarbulok xususiy korxonasi	12.06.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1
68	Oltin qanot MCHJ	15.06.2024	9-00	O‘zini Avtosaroy	1
69	Jonqobil ota XICHSF	16.06.2024	8-00 15-00	O‘zini Avtosaroy	3
70	Hayitkul MMTP	17.06.2024	9-00	O‘zini Avtosaroy	3
71	O‘zbekiston MMTP	18.06.2024	8-00 16-00	O‘zini Avtosaroy	9
72	X.Olimjon MMTP	19.06.2024	9-00 15-00	O‘zini Avtosaroy	4
73	Chorvodor MMTP	21.06.2024	8-00 13-00	O‘zini Avtosaroy	9
74	Chiyal MMTP	22.06.2024	9-00 16-00	O‘zini Avtosaroy	7
75	Kumdaryo o‘rmon xo‘jaligi	23.06.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	3

76	Ko‘kdala MMTP	24.06.2024	9-00	O‘zini Avtosaroy	1
77	«Sanatexgazservis plastika» MCHJ	25.06.2024	8.00 17-00	O‘zini Avtosaroy	2
78	Chiroqchi ishlab chikarish savdo MCHJ	26.06.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1
79	Xudoybergan ota XSF	29.06.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1
80	ATB Agrobank Chiroqchi filiali	30.06.2024	8-00 17-00	O‘zini Avtosaroy	1